1. Yeng qirqimlarini ulash	TYPICAL GC6150		Yeng qirqimlarining o'ngi ichkariga qaratib qo'yiladi va teskari tomonidan 1 sm chok haqqi hisobida tikiladi.
2. Yeng chokini dazmollash	Dazmol		Tikilgan choklar gazlamaning teskari tomoniga namlangan mato orqali dazmollanadi.
3. Yeng qirqimlarini yo'rmalash	TYPICAL GH2000-5		Dazmol qilingan yeng qirqimlarni maxsus mashina yordamida yo'rg'alanadi.
4. Yeng o'miziga burma berish	TYPICAL GC6150		Yeng o'miz qirqimlaridan 0,5 sm ichkarida 1 bahyaqator yurtuladi. Bu bahyaqatordan 0,5 sm ichkaridan 2 bahyaqator tikiladi. Ikkala bahyaqatorlar va burmalar tekislanadi.
<b>V) kaketkani tikish</b>			
1. Asos kaketkani	TYPICAL		Oldi va orqa kaketkalar o'ngini ichkariga qaratib ustma ust qo'yib yelka qirqimlarini

tayyorlash	GC6150		chetga 0.7-1 sm ga biriktirib tikiladi.
2. Tikilgan elka choklarini dazmollash.	Dazmol		Tikilgan yelka choklarni yorib dazmol qilinadi.
3. Astar kaketkani tayyorlash.	TYPICAL GC6150		Oldi va orqa kaketkalarini o'ngini ichkariga qaratib usma ust qo'yib yelka qirqimlari chetiga 0,7-1sm ga biriktirib tikiladi.
4. Tikilgan yelka choklarni dazmollash.	Dazmol.		Tikilgan yelka choklarini yorib dazmol qilinadi.
<b>Etak qismini tikish</b>			
1. Etak qismining yon qirqimlarini tikish.	TYPICAL GC6150		Orqa va oldi bo'lak etak qismlarni o'ngini ichkariga qaratib qo'yib yon qirqimlari chetidan 1-1,5 sm tikiladi.
2. Tikilgan yonqirqimlar ni dazmollash.	Dazmol.		Tikilgan yon qirqimlari (orqa bo'lakka) qaratib dazmol qilinadi.
3. Tikilgan maxsus qirqimlarini yo'rmalash	TYPICAL GH2000-5		Tikib, dazmol qilingan yon qirqimlari maxsus mashina yordamida yo'rmalanadi.

4. Etak qismining yuqori qirqimini burtaga yig'ish.	TYPICAL GC6150		Orqa va old yuqori qirqim chetlaridan 0.5sm ichkarida 1-bahyaqator yuritiladi. Bahyaqatordan 0.5 sm ichkaridan 2-bahyaqator yuritiladi, 2la bahyaqatorlarning ostki iplari tortiladi va burmalar tekislanadi.
<b>Manjetni tikish</b>			
1. Manjetni bukish	Dazmol		Manjetni o'rtasidan bukish chizig'i bo'ylab bukib ostki manjet tomondan dazmollanadi.
2. Manjetga qotirma yopishtirish	Dazmol		Ostki manjet teskari tomonidan dubnirinning kalit tomonini qo'yib namlab isitib ishlov beriladi, bunda qotirma qirqimlari, gazlama chok haqlariga 2-3 mm kirib turish kerak.
3. Manjetni tikish	TYPICAL GC6150		Gazlamani o'ngini ichkari tomonga bukib, manjet qirqimlari chetidan 0.5-0.7 sm ichkaridan biriktirib tikiladi.
4. Manjet chokini dazmollash	Dazmol		Tikilgan chok qirqimi yorib dazmollanadi.
5. Manjetni o'ngiga ag'darish	Qo'lda bajarish		Tayyor manjet ostki manjet tomonidan namlab isitib ishlov beriladi.

9. Old bo'lak etaki yuqori qirqimiga koketkani biriktirib tikish.	Ip, igna, angishvona, universal mashina.		Old bo'lak etaki o'miziga old koketka o'ngini qo'yib, qirqimlari to'g'rilanib, biriktirib 1 sm ga tikiladi.
10. Ort bo'lak etakiga koketkani biriktirib tikish.	Ip, igna, angishvona, universal mashina.		Ort bo'lak etaki o'ngiga ort koketka qirqimlari to'g'rilanib, biriktirma chok bilan tikiladi. Chok haqqi - 1 sm.
11. Old va ort etaklarni koketkaga ulangan chokini yo'rmalash.	.		Old va ort etaklarni koketka bilan ulangan choki maxsus yo'rmalash mashinalarida yo'rmanadi.
12. Old va ort etaklarni koketkaga ulangan chokni yotqizib dazmollash.	Dazmol, qolip.		Ulangan choklar yuqori tomonga yotqizib dazmollanadi.
16. Yengni o'mizga biriktirgan chokni yo'rmash.	. TYPICAL GH2000-5		Yeng yotqizilgan chok qirqimlari maxsus mashinada yo'rmanadi.
17. Yengni o'mizga yo'rmalangan chokni dazmollash.	Dazmol, qolip.		Yeng yo'rmalangan keyin hosil qilingan solqilar dazmollab kiritiladi.
18. Yeng uchi va ko'ylak etakini bukib tikish.	Igna, ip, angishvona.		Yeng uchi va ko'ylak etakini ko'rinmas qaviqqator bilan mahkamlab tikiladi.
19. Oxirgi ishlov berish. (NIIB).	Dazmol, mato, qaychi.		Ko'ylakni ortiqcha iplardan tozalanadi, yeng uchi va ko'ylakni etak old va orqa bo'laklari dazmollanadi.


## 5.2. Qirqimlarga texnologik ishlov berish



## **6. Iqtisodiy bo'lim**

### **6.1. Ayollar milliy ko'ylaklarini loyihalash, ishlab chiqarish, sotish va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili.**

Savdodagi tadbirkorlik faoliyati orqali jamiyat iqtisodiy boyliklari harakatlanadi, ishlab chiqarishdagi yangiliklar ragʻbatlantiriladi, istemolchilarning yangi didi, dunyoqarashi shakllanadi va moddiy hamda maʼnaviy ehtiyojlari qondiriladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga kuch-quvvat bagʻishlanadi. Faqat savdodagi tadbirkorlik yuqori darajaga erishsagina, mamlakat iqtisodiyoti barqarorlashadi, tovar va xizmatlarga boʻlgan sarf-xarajatlar toʻla qoplanadi, firma-korxonalar foyda oladi, soliqlar vaqtida toʻlanadi, berilgan ish haqqi va transfert toʻlovlar banklarga qaytib tushadi, yangi investitsiyalarga imkoniyat yaratiladi. Hozirgi iqtisodiyot juda koʻp bozorlarni oʻz ichiga oladi. Ularning ichidan beshta asosiylari bir-biri bilan qanday oʻzaro zanjirsimon bogʻlanganliklari va bir-birlarisiz faoliyat koʻrsatishlari mumkin emasligi 1-chizmada koʻrsatilgan.



**1-chizma. Zamonaviy iqtisodiyotda tovar-pul ayirboshlash (savdo)ning oʻrni.**

Har qanday milliy yoki jahon iqtisodiyoti, oʻzaro harakatdagi bozorlar kompleksidan tashkil topib, ularni savdo (tovar-xizmatlarni ayirboshlash) jarayoni umumlashtirib turadi. Demak, milliy va jahon iqtisodiyotlarini rivojiga asosiy taʼsirni savdo koʻrsatadi.

Milliy davlatlar xo‘jaliklarining o‘zaro iqtisodiy munosabatlari shunchalik mustahkamlanib bormoqdaki, ishlab chiqarish omillari bilan ta‘minot tizimida biror xududdagi ozgina cheklanish, jahon bozori narxlarini tebranishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotlarga va davlatlar ichki bozorlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Demak, dunyodagi globallashuv va baynalminallashuv jarayonlari o‘z taftiga (girdobiga) barcha milliy davlatlar iqtisodiyotlarini xam tortib, ularning jahon bozorlariga chiqishiga, raqobat kurashlarida qatnashishga va o‘zlarini sinab ko‘rishga imkoniyat yaratishmoqda. Ammo bu o‘ta dolzarb va qiyin muammolarni hal qilinishi uchun bozor munosabatlarini rivojlanish va takomillashish jarayonida iqtisodiyot sohasida shakllangan yangi kategoriyalar va fanlar (bozor, marketing, logistika, menejment va boshqalar) bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Bozor endi, eskicha savdo- sotiq joyi tushunchasi emas, balki keng ma‘noli iqtisodiy-ijtimoiy kategoriya sifatida qaraladi. Bozorda ishlab chikaruvchilar va iste‘molchilar manfaatlari to‘qnashadi, yuzma-yuz keladi va baho orqali bir-biri bilan kelishadi. Bozorda ishlab chiqaruvchi tovar yoki xizmatiga bo‘lgan sarf-xarajatlarini «toroziga» qo‘yadi, iste‘molchi esa ana shu tovar yoki xizmatni boshqa o‘xshashlariga solishtirib, iste‘mol qiymati yuqorirog‘ini xarid qiladi. Aholi bozorda yangi xilma-xil tovarlarni ko‘rib, ularni sotib olish va turmush sharoitini yaxshilash uchun o‘z ish joylarida yaxshiroq - unimliroq ishlashga qiziqadi. Bozor ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat maydonidir. Raqobatda yutib chiqish uchun tovar xizmatlarning yangidan-yangi xillari muomalaga kiritilaveradi, eskilari esa bozordan chiqib ketaveradi. Ayniqsa, xozirgi bozor iqtisodiyoti jahon miqyosini egallagan davrda, har qanday ishlab chiqarish g‘oyasi va yangi extiyoj(talabni) shakllanishi xam bozordan boshlanadi. Bozor «talab va taklif» qonuni asosida o‘z-o‘zini boshqaruvchi iqtisodiy- ijtimoiy jarayondir. Har qanday bozor jarayonining oxirgi maqsadi- tovar va xizmatni sotishdan iborat. SHuning uchun ham bozor-tovar-pul muammolari doirasi va o‘ziga xos iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar majmui

xisoblanadi. Bozorni, insoniyatning iqtisodiyot sohasidagi tarixiy ixtirosi deyilsa ham bo‘ladi.

**Bozorning ijtimoiy mohiyati** shundaki, u orqali tovar va xizmatlar o‘z xaridori va bahosini topib sotilgandan keyin, ularni yaratish g‘oyasi va ishlab chiqarishga sarflangan mehnat jamiyatda tan olinadi hamda u **ijtimoiy-zaruriy** ekanligi tasdiqlanadi. Shu bilan birga, iste‘molchi tovar va xizmatlarni (kitob, televizor, radio, internet va boshqalar) ni sotib olib ma‘naviy extiyojini xam qondiradi.

**Bozor turlari** sotilayotgan mahsulotlar, faoliyat chegarasi tartib-qoidalari va bir qancha belgilari bilan farqlanadi. Ammo, barcha bozor turlari ichida iste‘mol tovarlar bozori aloxida o‘rinni egallaydi.

**Iste‘mol tovarlari bozori**- aholining shaxsiy ehtiyojini qondiruvchi va hayot kechirish uchun uy-ro‘zg‘orini jihozlash maqsadida xarid qilinuvchi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini oldi-sotdi munosabatlari majmuini o‘z ichiga oladi. **Iste‘mol tovarlari bozori** o‘z navbatida **maxsus bozorlarga**: oziq-ovqat, kiyim-kechak, xo‘jalik, madaniy mollar va boshqalarga bo‘linadi. Bu bozorning moddiy-texnika asosi (infrastrukturasi) bo‘lib: ulgurji savdo bazalari, do‘konlar, oshxona, choyxona, dorixona, dexqon bozorlari va barcha chakana savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi shahobchalar hisoblanadi.

Iste‘mol tovarlari bozori - «Hazrati inson» uchun, uning farovon hayotini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi, shuning uchun ham Bosh bozor deyiladi. Qolgan hamma bozorlar, ana shu iste‘mol tovarlari bozorining mo‘l-ko‘lchiligini, unda talab va taklif tanosibligini ta‘minlashga qaratilgan asosiy omil hisoblanadi.

Iste‘mol tovarlari bozorining sig‘imi- hajmi tuman, shahar viloyat va mamlakat miqyosida chakana tovar aylanish (sotish) ko‘rsatkichi bilan aniqlanadi. Iste‘mol tovarlari bozori o‘zining holatiga qarab ikki xilga: «taqchil (sotuvchilar)» va «to‘yingan (xoridorlar)» bozoriga bo‘linadi.

«Sotuvchilar bozori»da tovarlar kamchil, ularga sotuvchilar xohlagan bahosini qo‘yadi, talab taklifga qaraganda ancha yuqori va monopollashgan bo‘ladi. Bunday bozor mamlakatda makroiqtisodiy mutanosiblik buzilganda va aholi turmushida har hil salbiy holatlar borligida shakllanadi.

«To‘yingan bozor»ni tashkil etish bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy maqsadi. Bunday bozorda xaridor - iste’molchi «Podsho» - tovarlar mo‘l-ko‘lligi ta’minlangan, talab va taklif mutanosiblikka yaqinlashgan, bo‘lib boxolar ko‘p o‘zgarmaydi. Bozordagi asosiy muammo - faqat xaridorni jalb qilish va unga qulayliklar yaratish orqali ko‘proq tovar sotish. «Xaridorlar bozorida»- tovar ishlab chiqaruvchilar orasida raqobat kuchayadiva unda yutib chiqishingiz asosiy vositasi-marketingdir.

**Xizmatlar bozori-** aholiga maishiy, ma’rifiy, tibbiy, texnik, kommunal, madaniy, aloqa, transport, konsalting, injiring, lizing va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha oldi-sotdi munosabatlarini ifodalaydi. Uning ham o‘ziga xos shaxobcha va muassasalari shakllanadi. Iste’mol tovarlari va xizmatlar bozorlarining o‘xshashligi shundaki, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri insonlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

**Ishlab chiqarish vositalari bozorida** sanoat korxonalarini, dexqon, fermer xo‘jaliklari va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari muassasalarining ta’minoti uchun zarur bo‘lgan dastgoh, xom-ashyo, jihoz va butun kerakli tovarlar oldi-sotdisi tashkil etiladi. Bu bozorni bizning mamlakatda «O‘zulgurjibirjasavdo» tizimi, tovar-xom ashyo birjalari miqyosida tashkil etilmoqda. Ishlab shiqarish vositalari bozori tovar birjalari orqali xam amalga oshiriladi.

**Moliya bozori-** naqt pul, valyuta, kapital va qimmatli qog‘ozlar oldi-sotti munosabatlari majmuini bildiradi. Moliya bozori sug‘urta tizimini ham o‘z ichiga oldi. Moliya bozorining sotuvchilari sifatida pul egalari-aholi, firma, korxonalar, davlat va tijorat banklari qatnashadilar. Moliya bozorining xaridorlari- pulga muhtoj bo‘lgan barcha sub’ektlardir.

Moliya bozori 3 tarkibiy qismga bo‘linadi: naqt pul(valyuta) bozorlari; qimmatli qog‘ozlar bozori va kapital bozori.

**Mehnat bozori** deganda -ishchi kuchini oldi-sotdi jarayoni tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslarini ham erkin oldi-sotdisi tashkil etiladi. Ortiqcha mehnat resursi ishchi kuchi sifatida taklif etiladi va korxonalar, firmalarning talablari asosida erkin baholarda sotiladi. Demak, mehnat bozorida ham talab, taklif

va boho mavjud. Ishchi kuchi qiymatining baholanishi, sotib olinayotgan ishchining ish haqi va qo‘shimcha imtiyozlari bilan aniqlanadi.

Mehnat bozori - mehnat birjalari orqali uyushtiriladi. Mehnat birjasi tuman, shahar va viloyatlarda o‘z tarmoqlariga ega.

**Jahon bozori** - xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-birlari bilan iqtisodiy aloqalarga kirishgan mamlakatlar o‘rtasidagi oldi-sotdi munasabatlarini ifodalaydi. Jahon bozori eng yuqori darajada tashkil etilgan tovar ayrboshlash jarayoni bo‘lib, unga o‘z tovari yoki xizmati bilan chiqadigan mamlakat yuqori darajadagi texnologiya bilan qurollangan bo‘lishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan bozorlar, amaliyotda yana o‘z-o‘zidan sotilayotgan tovarlar(xizmatlar) turlariga qarab bir-necha minglab xillarga bo‘linib ketadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning iqtisodiy qism mavzusi “Ayollar milliy ko‘ylaklarini loyihalash, ishlab chiqarish, sotish va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili” deb nomlanib, unda tahlil etish uchun biz “O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi faoliyatini oldik.

Buning uchun dastlab “O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi mahalliy xom-ashyolardan tayyorlangan bir necha xil gazlamalardan ayollar milliy ko‘ylaklarini tikishga ixtisoslashagandir. Korxonada foydalanadigan gazlamalarga atlas, adras, shoyi va shu kabilar kiradi.

### **“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi ayollar milliy ko‘ylaklarini loyihalash rejasi**

**1-jadval**

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatgich nomi</b>	<b>Ko‘rsatgichlar ma‘lumoti</b>
1	Loyihaning yo‘nalishi	Javob beradi
2	Bozorlarda ayollar milliy ko‘ylagining yetishmasligi	Yeshmovchilik darajasi 25-30 foiz.
3	Ayollar milliy ko‘ylagining narxi	Narxi 10-12 % ga kamaytirish kerak.

4	Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatlilik darajasi	Talabga javob beradi.
5	Sarflangan mablag'ni qoplash	Mahsulotlardan olingan foydani aylantirish yo'li bilan.
6	Ayollar milliy ko'ylagini tayyorlab chiqarish uchun qilinadigai sarflar quyidagicha	1 . Tikuv mashinalari va boshqa xarajatlarga – 5 700 000 so'm 2. Asosiy material uchun -5 000 000 so'm Jami - 10 700 000 so'm

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, korxonaga uchun moliyaviy reja ishlab chiqamiz.

**“O‘zbegim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi moliyaviy reja.**

**2-jadval**

Xarajat turlari	Umumiy qiymati (ming so'mda)	Qarz hisobidan
1.Dastgohlar uchun		
-bichuv mashinasi 1-dona 1400 000	5 500 000	5 500 000
-averlog 2-dona 1 000 000		
-itib chiqarish uchun 2 000 000		
2.Asosiy va yordamchi materiallar uchun	4 000 000	4 000 000
Jami	9 500 000	9 500 000

Demak, korxonaning moliyaviy rejada loyiha qiymati 9,5 mln. so'mga teng.

“O‘zbegim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi o‘z imkoniyatidan kelib chiqib bir oyda 100 dona ayollar milliy ko'ylaklarini loyihalaydi va itikib chiqaradi. Korxonaga bozorni o'rgangan holda, uni tahlil etib, ayollar milliy ko'ylagi xajmini, xarajatlar summasini va olinadigan daromadni biznes rejada quyidagicha belgilaydi.

**“O‘zbegim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi mahsulot ishlab chiqarish xajmi**

**3 -jadval**

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Bir oylik ishlab chiqarish miqdori (dona)	Bir yillik ishlab chiqarish miqdori (dona)
Ayollar milliy ko'ylagi	dona	100	1200

“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi ishlab chiqarish jarayonida bir qator xom ashyolardan foydalanadi. Ayollar milliy ko'ylagini tikish uchun - material, ip, astarlik, bezash uchun bezamalarni ishlatadi.

“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi foydalanadigan xom-ashyolari sarf xarajatlarini quyidagi jadvallarda ko‘rib o‘tamiz.

**Bir dona mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xom-ashyolarni biznes rejada ifodalanishi**

**4 -jadval**

Ishlab chiqariladigan mahsulot nomi	Xom-ashyo nomi	o'lchov birligi	Bir dona mahsulot tayyorlash uchun sarf hajmi
Ayollar milliy ko'ylagi	material	metr	3
	ip	dona	1
	astarlik	metr	1
	bezamalar (zeb-ziynatlar)	so‘m	3 000

“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasining ishlab chiqaradigan ayollar milliy ko'ylagi uchun bir oylik va bir yillik xom ashyo xarajatlarini biznes rejada belgilanishini keyingi jadval yordamida ko‘rib o‘tamiz.

**“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasining ayollar milliy ko'ylagini tayyorlash uchun qilinadigan sarf xarajatlarni biznes rejada belgilanishi**

**5 -jadval**

№	Sarf xarajatlar nomi	bir oylik sarf xarajat, so‘m	bir yillik sarf xarajat, ming so‘m
1	Xom ashyo va materiallar: gazlama, ip, astar, bezemalar	2 910 000	34 920 000
2	Elektr energiya	225 000	2 700 000
	Jami	3 135 000	37 620 000

“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi bozordagi turdosh mahsulotlar bahosini tadqiq qilgan holda ayollar milliy ko‘ylagining bahosini belgiladi, bir oylik va bir yillik sotuv tushumi miqdorini ishlab chiqdi. Buni biznes reja bo‘yicha quyidagi jadval yordamida yoritib o‘tamiz.

**“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish xajmi**

**6 -jadval**

№	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	Sotish narxi	Bir oyda tayyorlangan	Bir oylik tushum,	Bir yilda tayyorlangan	Bir yillik tushum,
---	---------------	--------------------	-----------------	--------------------------	----------------------	---------------------------	-----------------------

				mahsulot mikdori	so‘m	mahsulot mikdori	ming so‘m
1	Ayollar milliy ko‘ylagi	1 dona	40 000	100	4 000 000	1200	48 000 000

“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan ayollar milliy ko‘ylagidan tushgan tushumdan qilingan barcha sarf-xarajatlar chegirib tashlanganda korxonaning yalpi foydasi qoladi. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarni biznes-reja bo‘yicha belgilangan natijalarini quyidagi jadval yordamida yoritamiz.

**“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari**

**7 -jadval**

№	Xarajat nomi	bir oyda, so‘m	bir yilda, ming so‘m
	Xom ashyo	2 910 000	34 920 000
	Elektr energiya xarajatlari	225 000	2 700 000
	Transport xarajatlari	50 000	600 000
I	Ishlab chiqarish tannarxi	3 185 000	38 220 000
II	Ishlab chiqarishdan tushgan tushum	4 000 000	48 000 000
III	Faoliyatdan ko‘rilgan foyda	815 000	9 780 000

“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasining ayollar milliy ko‘ylagi tikishdan ko‘radigan moliyaviy natijalarini quyidagi jadval yordamida ko‘rib o‘tamiz.

**“O‘zbekim atlaslari” xususiy tikuvchilik korxonasining moliyaviy natijalari ko‘rsatkichlari**

## 8- jadval

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>1 yilda</b>
1	Mahsulot sotish dan yalpi tushum, so'm	48 000 000
2	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, so'm	38 220 000
3	Mahsulot sotishdan yalpi foyda, so'm	9 780 000
4	Ko'zda tutilmagan boshqa xarajatlar, so'm	1 000 000
5	Foydadan soliq to'langunga qadar foyda, so'm	8 780 000
6	Kredit qaytarilishi,so'm	1 250 000
7	Korxonada ixtiyorida qolgan sof foyda,so'm	7 530 000
8	Korxonani ishlab chiqarish rentabelligi, % (7/2)	19,7
9	Mahsulot sotish rentabelligi, % (3/1)	20,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "O'zbekim atlaslari" xususiy tikuvchilik korxonasi bir yilda 7 530 000 so'm miqdorida sof foydaga ega bo'lmoqda. Korxonada ishlab chiqarish rentabelligi 19,7 % ga, mahsulot sotish rentabelligi 20,4 % ga teng bo'ladi. Korxonada istiqbolda milliy ko'ylaklar yangi fasonlarini yaratib, xarajatlarni kamaytirishi va mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarish natijasida foyda miqdorini oshirishi mumkin. Provardda korxonada rentabelligi yanada oshishi mumkin. Demak "O'zbekim atlaslari" xususiy tikuvchilik korxonasida ayollar milliy ko'ylagini ishlab chiqarishni loyihalash korxonada uchun samara keltiradi.



## **7. Mexnat muxofaza bo'lim**

### **7.1. Yengil sanoat korxonalarida mexnatni muxofaza qilish bo'yicha tadbirlar**

Yengil sanoat korxonalari ishlab chiqarishda mexnat sharoitini yaxshilash xamda sog'lom va xavfsiz ish sharoitini tashkil etish uchun birinchi navbatda mexnat muxofazasini yaxshilash bo'yicha rejali tadbirlar ishlab chikish talab etiladi. Bu rejali tadbirlar Kasaba uyushmasi Qo'mitasi bilan kelishilgan xolda tuzilmog'i va zarur mablag'lar bilan ta'minlanmog'i zarur. Mexnat muxofazasini yaxshilash bo'yicha bajariladigan barcha ishlar bir yilga, besh yilga va kelajakka mo'ljallangan kompleks rejalar asosida amalga oshiriladi.

Mexnat muxofazasini yaxshilash bo'yicha tuziladigan bir yillik rejada ko'zda tutilgan tadbirlar tashkilot ma'muriyati bilan kasaba uyushmasi qumitasi o'rtasida tuzilgan mexnat muxofazasi bo'yicha kollektiv shartnomada o'z ifodasini topadi. Kollektiv shartnoma loyixasi yil boshida ishchilarning umumiy majlisida muxokamaga qo'yiladi va u ma'qullangach tashkilot ma'muriyati xamda kasaba uyushmasi qumitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Mexnat muxofazasini yaxshilash bo'yicha tuziladigan tadbirlar asosan quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi mumkin:

#### **a) Ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalarni oldini olish:**

-barcha yangi qurilayotgan ob'ektlarni mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi masalalarini qamrab olgan ishlab chiqarish ishlari loyixasi bilan ta'minlash;

-ish joylarida ishlayotgan barcha mashina va mexanizmlarning sozligi va texnikaviy xolati ustidan qat'iy nazorat qilib borish xamda ularni belgilangan vaqtlarda sinovdan o'tkazish;

-sodir bo'lgan baxtsiz xodisalar yana takrorlanmasligi uchun ularni taxlil qilib borish;

-xavfsizlik texnikasi xolati ustidan uch bosqichli ma'muriy-jamoat nazoratini doimiy ravishda olib borish;

-xavfsiz mexnat sharoitini ta'minlaydigan yangi moslama va vositalar ishlab chiqish;

-elektr qurilmalari va jixozlarining yerga ulanganligini tekshirib borish;

-ishchilarni maxsus kiyim boshlar va shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlash, ulardan foydalanish darajasini nazorat qilib borish;

-ishchilar va injener-texnik xodimlarni xavfsizlik texnikasi bo'yicha qo'llanmalar bilan ta'minlab borish.

#### **b) Ishlab chiqarishda kasallanishning oldini olish uchun:**

-ish joylarida va dam olish xonalarida normal mikroiklim bo'lishini ta'minlash;

-ishchilar va xodimlarni ishga va ishdan avtobuslarda yoki shu maqsadlar uchun maxsus jixozlangan avtomobillardagina tashish;

-ishlab chiqarishda kasb kasalligini oldini olish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish;

-belgilangan ish turlari uchun meditsina ko'riklarini tashkil qilish;

-ish joylari va dam olish xonalarining sanitariya xolatini yaxshilash;

-loyixa asosida talab etiladigan ish joylari va binolarida shamollatish, shovkin va titrashni kamaytirish moslamalarini urnatish;

-maxsus kiyim boshlarni quritish, dush, yuvinish xonalarini xamda issik sexlarda gaz suvlarini tashkil etish;

-belgilangan ish turlaridagi ishchilarni sut va boshqa profilaktik ozik-ovkatlar bilan ta'minlashni tashkil etish:

**v) Mexnat sharoitlarini yaxshilash uchun:**

-ishlab chiqarish madaniyatini yuksaltirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar va yangi texnikalarni joriy etish;

-xavfsizlik texnikasi xolatini yaxshilashga yo'naltirilgan ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini keng yo'lga qo'yish;

-xavfsizlik texnikasi xolatini yaxshilashga yo'naltirilgan musobaqalar tashkil etish;

-ish joylari, sanitar vagon-uychalar va boshqa ishlab chiqarish binolarini yangi zamonaviy shamollatish xamda isitish qurilmalari bilan jixozlash;

**g) Mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish xamda targ'ibot ishlarini olib borish uchun:**

-barcha ishchilar va injener-texnik xodimlarni xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish, yo'riqnomalar berish va bilimlarini sinovdan o'tkazish;

-xavfsizlik texnikasi va favqulodda xolatlarda xayot faoliyat xavfsizligi bo'yicha kabinetlar tashkil etish;

-xayot faoliyati xavfsizligi yoki mexnat muxofazasi bo'yicha seminarlar tashkil etish;

-yangi joriy etilgan texnik vositalardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma va qullanmalar ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan tadbirlar majmui korxonaning ishlab chiqarish soxasiga bog'lik xolda kerakli qo'shimchalar bilan to'ldirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan mablag'larni quyidagi tartibda taqsimlash maqsadga muvofiq xisoblanadi: ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz xodisalarni oldini olish uchun – 40%; kasallanishni oldini olish uchun – 20%; mexnat sharoitini yaxshilash uchun – 30%; mexnatni tashkil etish xamda targ'ibot ishlarini olib borish uchun – 10%.

Korxonalar ma'muriyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va yuqori tashkilotlarning roziligi bilan sarflanadigan mablag'larni bir gurux tadbirlardan ikkinchisiga o'tkazishi mumkin. Bu tadbirlar uchun ko'zda tutilgan mablag'larni boshqa tadbirlar uchun sarflash taqiqlanadi.

Mexnatni muxofaza qilishni moliyaviy ta'minlash davlat tomonidan, shuningdek mulk shaklidan qat'iy nazar jamoat birlashmalari, korxonalarining ixtiyoriy badallari xisobiga amalga oshiriladi.

Mexnatni muxofaza qilish uchun tegishli byudjetlardan aloxida qayd bilan ajratiladigan byudjet mablag'laridan (Respublika va maxalliy) boshkaruv xamda nazorat idoralarini saklash, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyaviy ta'minlash, mexnatni muxofaza qilishga oid davlatning aniq maqsadga qaratilgan dasturlarini bajarish uchun foydalaniladi. Xar bir korxonalar mexnatni muxofaza qilish uchun zarur mablag'larni jamoa shartnomasida belgilangan miqdorda ajratadi. Korxonalarining xodimlari ana shu maqsadlar uchun qandaydir qo'shimcha chiqim qilmaydilar. Korxonalar o'zining xujalik, tijorat, tashki iqtisodiy va boshqa faoliyatidan keladigan foyda (daromad), shuningdek boshqa manbalar xisobiga

mexnatni muxofaza qilishning markazlashtirilgan fondlarini tashkil etish xuquqiga ega. Mexnatni muxofaza qilish fondiga karatiladigan foydaga soliq solinmaydi. Mexnatni muxofaza qilishga muljallangan mablag'larni boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin emas. (Uzbekiston Respublikasining mexnatni muxofaza qilish to'g'risidagi qonuni, 11-modda.)

## **Mexnat muxofazasi va xavfsizlik**

### **texnikasi bo'yicha o'qitish**

Ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatadigan xar bir ishchi va xodim uziga berkitilgan ishni xavfsiz bajarishi uchun chuqur bilimga ega bo'lishi zarur. Buning uchun esa ularni mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha malakali o'qitish talab etiladi.

Ishlab chiqarishdagi barcha ishchilar ishlab chiqarish ishlarining xarakteri va xavfsizlik darajasidan qat'iy nazar mexnat xavfsizligi bo'yicha o'qitilib, bilimlari tekshirilib ko'rilgandan keyin ishga ruxsat etiladi. Ishchilarni mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish ularga yo'riqnomalar (instruktajlar) o'tish orkali amalga oshiriladi. Yo'riqnomalar mazmuni, xarakteri va o'tkazilish davriga bog'lik xolda quyidagi turlarga bo'linadi:

**Kirish yo'riqnomasi.** Kirish yo'riqnomasini korxonadagi xavfsizlik texnikasi bo'yicha muxandis, korxonada raxbari yoki bosh muxandis xamda kasaba uyushmasi qumitasi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida o'tkazadi. U mexnat muxofazasiga oid zamonaviy vositalar va ko'rgazmali qurollar bilan jixozlangan mexnat muxofazasi kabinetlarida o'tkaziladi.

Kirish yuriqnomasi «SN va PM-4-80» asosida tuzilib, quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:

- korxonaning ish rejimi va ichki tartib qoidalari bilan tanishtirish;
- mexnat intizomi va uni mexnat xavfsizligiga ta'siri;
- mexnat muxofazasi bo'yicha jamoa (kollektiv) shartnomalari;
- korxonada sodir bo'lgan baxtsiz xodisalar va ularni kelib chiqish sababalari;
- yong'inni oldini olish tadbirlari;
- elektr xavfsizligining asosiy qoidalari;
- yuklarni ko'tarish va tushirishdagi, ximikatlar va kislotalar bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari;
- ishga kelish yoki ishdan qaytishdagi xavfsizlik qoidalari;
- maxsus kiyim boshlar va saqlash qurilmalaridan foydalanish qoidalari;
- jaroxatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartib-qoidalari;
- ichkilikbozlikka karshi kurash tadbirlari;
- jamoada o'rtasida ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar.

Kirish yo'riqnomasi dasturiga kiritilishi lozim bo'lgan masalalar maxalliy sharoitlar, ishlab chiqarish xarakteri va ishga qabul qilingan ishchining kasbiga bog'lik xolda qo'shimcha tadbirlar bilan tuldirilishi mumkin. Ushbu yo'riqnomada maxsus jurnalga yoki maxsus shakldagi «kartochka» orqali xujjatlashtiriladi.

**Ish joyidagi birlamchi yo'riqnomada.** Ushbu yo'riqnomada xam korxonada raxbari (yoki bosh muxandis) va kasaba uyushmasi qumitasi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida o'tkaziladi.

Ish joyidagi birlamchi yo'riqnoma dasturiga asosan quyidagilar kiritilishi mumkin:

- ish joyidagi texnologik jarayonlar va tashkiliy-texnik qoidalar;
- ish joyini tashkil etishga quyilgan talablar;
- mashina yoki qurilmaning tuzilishi, ishlash tartibi, texnik ma'lumotlari va uning xavfli zonalari;
- ishni bajarishdagi xavfsizlik qoidalari;
- mashina yoki qurilmalardan foydalanishning xavfsiz usullari;
- elektr jixozlari va ular bilan ishlash qoidalari;
- ish joyining yoki ish maydonining xavfli zonalari;
- ish joyidagi «signalizatsiya» va undan foydalanish qoidalari.

Yukorida qayd etilgan masalalardan tashkari bu yo'riqnoma, ishning turiga va ishchining malakasiga bog'lik xolda boshqa tadbirlar bilan xam to'ldirilishi mumkin.

**Navbatdagi (rejadagi) yo'riqnoma.** Bu yo'riqnoma xarakteri va xavflilik darajasiga bog'lik xolda ish joyidagi birlamchi yo'riqnomadan 3 yoki 6 oy o'tgach o'tkaziladi. Ushbu yo'riqnoma ishchilarni mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha bilimlarini oshirish xamda tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Yo'riqnomani o'tkazishda ish joyidagi birlamchi yo'riqnoma dasturi asos qilib olinadi.

**Navbatdan (rejadan) tashkari yo'riqnoma.** Bu yo'riqnoma ishlab chiqarish texnologiyalari uzgarganda, yangi texnika vositalari joriy etilganda, ishchi bir ishdan boshqa ishga o'tkazilganda, baxtsiz xodisa ro'y berganda yoki xavfsizlik texnikasi qoidalari buzilgan vaqtlarda o'tkaziladi.

**Davriy (mavsumiy) yo'riqnoma.** Ayrim ishlab chiqarish soxalari, jumladan qishloq xo'jalik ishlari mavsumiy xarakterga egaligi sababli,

mavsum turiga bog'liq xolda mavsumiy yo'riqnoma o'tkaziladi. Masalan: baxorgi yerga ishlov berish mavsumi oldidan, ekish mavsumi oldidan, xosilni yig'ib olish davri oldidan va boshqalar.

**Kurs o'qishlari.** Ishlab chiqarish jarayoni davrida bajariladigan ishning turiga va xarakteriga bog'lik xolda ishchilar va texnik xodimlar mexnat muxofazasi bo'yicha kurs o'qishlariga yuboriladilar. Kurs o'qishlari oliy o'quv yurtlari qoshidagi malaka oshirish kurslari yoki fakultetlarida xamda ilmiy tekshirish institutlarida maxsus dastur asosida.

## **8. Yakuniy qism.**

### **8.1 Umumiy xulosa va takliflar.**

“Yengil Sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi” kafedrasidan tomonidan berilgan – “Ayollar milliy ko’ylak lozimini konstruksiyalash, modellashtirish, ishchi andozalarini tayyorlash va texnologik jarayonlarini loyihalash” mavzusi bo’yicha diplom loyiha ishi bajarildi.

Asosiy qismida mavzu bo’yicha zamonaviy moda yo’nalishi va talablarni o’rganib chiqqan holda berilgan dastlabki ma’lumotlar asosida taklif modellari ishlab chiqildi. Taklif modellari sifat ko’rsatkichlari bo’yicha baholanib asosiy model tanlab olindi.

Tanlangan modelni loyihalash qismida O’zbekiston iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda model va uning hususiyatlariga to’g’ri keladigan tabiiy shoyi gazlamasi tanlandi. Maxsus bo’limda berilgan mavzu bo’yicha ilmiy ish bajarildi. Bunda uch xil metodika bo’yicha asos konstruksiya o’rganilib, ularning hususiyatlari tahlil qilindi. Shundan so’ng maxsus bo’lim natijalariga asoslanib SNIIShP metodikasi bo’yicha konstruksiya qurildi va model konstruksiyasi ishlab chiqilidi. Ishchi xujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi va gazlama sarflash normasi hisoblandi.

Texnologik bo’limda dastlab loyihalananayotgan komplekt va material hususiyatlariga to’g’ri keladigan zamonaviy asbob-uskuna va tikish usuli tanlandi. Ishlov berish usullari qirqimlarda ko’rsatildi. Diplom loyiha ishida seriyaga ishlov berilganiligi sababli model kolleksiyasiga ishlov berish texnologik tartibi tuzildi va shu asosida ishlab chiqarish parametrlari hisoblanib, ishlab chiqarish oqimining tashkiliy texnologik sxemasi tuzildi. Tashkiliy texnologik sxema analitik va graf usulida tahlil qilindi. Tikuv sexi loyihalalanib ish o’rinlari joylashtirilib chiqildi. Mehnat predmetlarini ish joyidan keyingi ish joyiga uzatish uchun aravachalaridan foydalanildi.

Ishni bajarish natijasida yuqori texnika – iqtisodiy ko’rsatkichlarga erishildi. Korxonada loyihalashtirilayotgan potokda rentabellik, foyda va tannarx ko’rsatkichlari ishlab chiqildi.

## 9. Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. “O’zбекистон mustaqillikka erishish ostonasida”. T. : O’zbekiston 2011 – yil. [1]
2. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O’zбекистон sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari”. T.: O’zbekiston. 2009 – yil. [2]
3. Komilova H.H, Hamrayeva H.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. T.: Moliya, 2003 – yil. [3]
4. Мартинова А.И и другие. «Конструирование и моделирование одежды» Москва. 1999 год. [4]
5. M.Sh.Jabborova. “Tikuvchilik texnologiyasi” T., O’zbekiston, 1994 yil. [5]
6. X.X.Samarxodjaev . “Tikuv korxonalar uskunalari”. T., O’qituvchi, 2001 yil. [6]
7. X.X.Samarxodjaev “Spravochnik”. T., O’qituvchi, 2001 yil . [7]
8. “Texnologik jarayonlarni loyihalash” fanidan kurs loyahasini bajarish yuzasidan uslubiy ko’rsatma. Namangan-2012. [8]
9. A.Ya.Truxanova. “Tikuvchilik texnologiyasi asoslari” Toshkent.: 1998 yil. [9]
10. M.Sh.Jabborova. “Tikuvchilik texnologiyasi” T., O’zbekiston, 1989 yil. [10]
11. Karimova M.V. “Tikuvchilik sanoati”. Toshkent.: “O’qituvchi”. 1989- yil. [11]
12. Ortiqov A. “Sanoat iqtisodi”. Toshkent.: “O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi”. Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. 2004 yil. [12]
13. “Mehnat muhofazasi” O’quv – uslubiy majmua. NamMTI. Namangan.: 2014 yil. [13]
14. Internet saytlari. [14]

## Mundarija

I. KIRISH.....	4
I.1. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati.....	9
I.2. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.....	9
I.3. Tanlangan obyekt va tadqiqot usuli.....	10
2. ASOSIY QISM.....	11
2.1. Tikuvchilik sanoati va hozirgi kundagi holati.....	12
2.2. Tikuvchilik mahsulotlarini rivojlanishi.....	12
2.3. Bitiruv malakaviy ishida tanlangan model uchun qo'yilgan talablar.....	12
2.4. Model ko'rinishi va tafsifi.....	13
2.5. Kiyim bichimi.....	21
2.6. Kiyim sifati haqida umumiy ma'lumot.....	23
2.7. Bitiruv malakaviy ishida modellarning vazifalari.....	29
2.8. Tanlangan model xususiyatidan kelib chiqib gazlama tanlash va asoslash.....	29
3. EKSPRIMENTAL QISM.....	31
3.1. Ayollar milliy ko'ylagi konstruktsiyasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	31
3.2. Kiyim konstruktsiyasini qurishda o'lcham kattaliklari.....	32
3.3. Kiyim konstruktsiyasi hisobi M 1:1 (M 1:5).....	33
3.4. Kiyim konstruktsiyasi hisobi.....	35
3.5. Loyihalanayotgan modelni modellashtirish va ishchi andozasini tayyorlash.....	37
3.6. Loyihalanayotgan model uchun mashina jixozini tanlash.....	47
4. TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH.....	49
4.1. Ayollar milliy ko'ylagiga ishlov berishning texnologik ketma-ketligi.....	49
4.2. Ishlab chiqarish oqim shakllari va turlarini hisoblash.....	56
4.3. Ishlab chiqarish oqim shakllarini va turlarini tanlash.....	58
4.4. Ishlab chiqarish oqim parametrlarini hisoblash.....	60
4.5. Ishlab chiqarish oqimining texnologik sxemasi.....	61

4.6. Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy-texnologik sxemasi tahlili.....	67
5. TEXNOLOGIK QISM.....	69
5.1. Texnologik ishlov berish.....	69
5.2. Qirqimlarga texnologik ishlov berish.....	73
6. IQTISODIY QISM.....	74
6.1 Ayollar milliy ko'ylaklarini loyihalash, ishlab chiqarish, sotish va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili.....	74
7. MEXNAT MUHOFAZA QISM.....	85
7.1 Yengil sanoat korxonalarida mexnatni muxofaza kilish bo'yicha tadbirlar.....	85
8. YAKUNIY QISM.....	93
8.1. Umumiy xulosa va takliflar.....	93
9. Foydalanilgan adabiyotlar.....	94

Mundarija

Internet saytlari

Internet ma'lumotlari

Ilova.

